



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 4 - oktabr

157-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

Surxondaryo viloyati hokimining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Surxondaryo viloyati hokimining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2021-yil 17-sentabrdagi 575-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 1-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
2. Viloyat hokimining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.
3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari I.Saparov hamda A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 4 октябрдаги
157-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

Surxondaryo viloyati hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari ro’yhati

1. Viloyat hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 240-sonli qarori to‘g‘risida” 2011-yil 29-avgustdagi Q-179-sonli qarori.

2. Viloyat hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-iyuldagi “Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2011-yil 23-avgustdagi 240-son qaroriga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 597-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 2018-yil 4-avgustdagi Q-647-sonli qarori.

3. Viloyat hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi “Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 240-son qarori to‘g‘risida” 2011-yil 29-avgustdagi 179-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2019-yil 4-sentabrdagi Q-428-sonli qarori.

4. Viloyat hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son Farmoni)gi 1046-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida” 2020-yil 3-yanvardagi Q-4-sonli qaroriga ilovaning 49-bandi.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 4 октябрдаги
157-8-0-Q/21-сон қарорига
2-илова

Surxondaryo viloyati hokimining o'zgartirish kiritilayotgan ayrim qarorlari ro'yhati

1. Viloyat hokimining "Viloyat hokimining 2019-yil 30-sentabrdagi Q-505/1-son qaroriga o'zgartirish kiritish to'g'risida" 2021 yil 10 sentabrdagi 139-8-0-Q/21-son qarorining 1-bandidagi "2021-yil" so'zlari "2019-yil" so'zlari bilan almashtirilsin.

2. Viloyat hokimining "Bandixon tumani "Bandixon Sariosiyo" massivi hududidan "ASIA ORIGINAL FRUITS" fermer xo'jaligiga yengil konstruksiyali "Issiqxona" qurish uchun ruxsat berish to'g'risida" 2021-yil 30-apreldagi Q-366-son qarorining sarlavhasi hamda 1-2 bandlaridagi "ORIGINAL" so'zlari "ORIGINAL" so'zlari bilan almashtirilsin.